HSR (LONDON),
HOUGHTON STREET REVIEW JOURNAL
ISSN: 2058-5519|Impact factor-15.9
http://houghtonstreetreview.com/index.php/hsr

BILIM YURTLARIDA IKKINCHI CHET TILINI O‘QITISH MASALALARIGA DOIR: MUAMMOLAR VA YECHIMLAR (NEMIS TILI MISOLIDA)

Jurayev Erkinjan Turdaliyevich
O‘qituvchi
O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti
erikusername2023@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada O‘zbekiston respublikasining barcha etakchi maktab, litsey va oliygoxlarida kamida ikkita xorijiy tilni o‘qitishning ijobiy jihatlari, o‘quvchi va talabalarga ikki va undan ortiq chet tillarini o‘qitishda uchraydigan muammolar va ularni bartaraf qilish yuzasidan ayrim metodik tavsiyalar haqida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar: bilim yurtlari, ikkinchi chet tili, ko‘ptillilik, motivatsiya berish, o‘quvchilarning qiziqishlari, integrallashtirish.

Аннотация. О проблемах преподавания второго иностранного языка в учебных заведениях: проблемы и их решения (на примере немецкого языка)

В данной статье рассматривается опыт внедрения второго иностранного языка в систему образования Республики Узбекистан. Представляются положительные результаты преподавания второго иностранного языка в учебных заведениях а также проблемы, возникшие при этом и способы их решения.

Ключевые слова: учебные заведения, второй иностранный язык, многоязычность, мотивирование, интересы обучаемых, интегрирование.

Abstract. On the problems of teaching a second foreign language in educational institutions: challenges and solutions (using German as an example)

This article discusses the experience of introducing a second foreign language into the circulation system the Republic of Uzbekistan. Present the positive result of teaching second foreign language in educational institution and also the problems that have arisen, as well as and ways the solve them.

Keywords: educational institution, second foreign language, multilingual, mounting, the interest of the trainees, integration.

Kirish

Mamlakatimizda xar yili ilm-fanning bir nechta yo‘nalishi tanlab olinib, aloxida e'tibor bilan rivojlantirilmoqda. O‘zbekistonning ochiq siyosati, dunyo bozoriga faol kirib borayotgani, barcha sohalarda xalqaro hamkorlik kengayayotgani horijiy tillarni bilishga ehtiyojni oshirmoqda.

- “Mamlakatimizda horijiy tillarni o‘rgatish bo‘yicha kelajak uchun mustahkam poydevor bo‘ladigan yangi tizimni yo‘lga qo‘yish vaqti-soati keldi. Biz raqobatdosh davlat qurishni o‘z

HSR (LONDON),
HOUGHTON STREET REVIEW JOURNAL
ISSN: 2058-5519|Impact factor-15.9
http://houghtonstreetreview.com/index.php/hsr

oldimizga maqsad qilib qo‘ygan ekanmiz bundan buyon maktab, litsey, kollej va oliy o‘quv yurti bitiruvchilari kamida 2 ta chet tilini mukammal bilishlari shart. Bu qat'iy talab xar bir ta'lim muassasasi rahbari faoliyatining asosiy mezoniga aylanishi lozim.” – deydi davlatimiz raxbari Shavkat Mirziyoev.

Tilni bugungi kunda nafaqat o‘zaro muloqot vositasi sifatida, balki siyosat, iqtisodiyot, madaniyat va jamiyatdagi boshqa sohalarga ham ulkan ta'sir o‘tkazuvchi, inson taqdirini belgilovchi vosita sifatida tushunish va o‘rgatish aynan xaqiqatdir. Shularni e'tiborga olgan holda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasi huzurida O‘zbekiston tarixida birinchi marotaba xorijiy tillarni o‘rganishni ommalashtirish agentligi tashkil etildi va o‘z faoliyatini boshladi. Bu Agentlik dunyoda samarali natija bergan o‘qitish metodikalari, dastur va darsliklarni ta'lim tizimida joriy etib, xorijiy tillarni mukammal o‘zlashtirishda ko‘maklashadi.

Psixologlarning takidlashlaricha, chet tilini o‘rgatish va o‘rganish odam anatomiyasining rivojlanishiga ham ijobiy ta'sir o‘tkazadi, ya'ni, inson miyasini charxlaydi, xotirasini mustahkamlaydi. Ayniqsa, keksa yoshda til o‘rganish - ularda qarish jarayonini keskin sekinlashtiradi.

Mavzuning dolzarbligi

Bugungi kunda nafaqat Evropaning, balki O‘zbekiston respublikasining barcha etakchi maktab, litsey va oliygoxlarida barcha o‘quvchilar uchun kamida ikkita xorijiy tilni egallash majburiyati qo‘yildi. Faqat shu tarzdagina kelajak kafolatlanishi mumkin.

Xalqaro munosabatlar avj olgan zamonamizda tillarni bilish, ayniqsa, ko‘p tillilik (poliglossiya) ulkan kasb etmoqda. Umummadaniy vakolatlar orasida boshqa madaniyatlarning qadriyatlariga do‘stona, tolerantlik munosabatida bo‘lish shaxs uchun katta ahamiyatga egadir. Siyosatning bir bo‘lagiga aylanib kelayotgan tushuncha - umuminsoniy qadriyatlar xorijiy tillarni o‘rganish tizimini shakllantirishga o‘z hissasini qo‘shib kelmoqda. O‘zbekiston Respublikasida ta'limni rivojlantirish samaradorligining ko‘rsatkichlaridan biri "Ikkinchi chet tili" fanini o‘qitishning o‘ziga xosligidir.

Ko‘p tillarni bilishning afzalliklari va yutuqlari xaqida o‘tgan asrlarda yashab ijod qilgan ko‘pgina dunyo olimu-mutafakkirlari hikmatli so‘zlar qoldirishgan. Masalan buyuk mutafakkir Alisher Navoiy shunday degan edi: “Birovning yuragiga yo‘l topmoqchi bo‘lsangiz – bu til bo‘ladi”, yoki frantsuz faylasufi F.Volter shunday g‘oyani ilgari surdi: "Ko‘p tillarni bilish - bir qulfning ko‘p kalitlariga ega bo‘lish, degan ma'noni anglatadi.

Mamlakatimizda ta'lim olish har doim tanlash imkoniyatlari bilan ajralib turadi. An'anaga ko‘ra, ko‘p mamlakatlarda, xususan O‘zbekistonda ham Evropa tillaridan: ingliz, nemis, frantsuz tillari asosiy chet tili sifatida o‘rganiladi. Biroq, ohirgi o‘n yillikda ko‘ptililikka asoslangan ta'limga bo‘lgan talab yildan yilga ortib bormoqda.

Iqtisodiy jihatdan ancha asosli bo‘lgan ingliz tilini o‘rganuvchilar nisbati ko‘pchilikni tashkil etadi, chunki ingliz tili xalqaro aloqa tili maqomiga ega. Shu bilan birga, bitta chet tilini bilish bilan cheklanish rejalashtirilgan yutuqni etarli darajada ta'minlay olmaydi. Har bir kishi, har bir jamiyat uchun faqat bu vositachi tilda egallangan oz yoki ko‘p bilimlar bilan cheklanib qolmaslik uchun jiddiy sabab bordir. Agar ingliz tilini bilish barcha uchun odatiy holga aylangan bo‘lsa, shaxs sifatida yuqori martabalarga erishish uchun esa me'yoriy holdan ortiq bo‘lgan bilimlarni egallash, xususan til borasida (kamida) yana boshqa biror xorijiy tilni bilish talab etiladi.

Maqolaning maqsadi tor doirada mulohaza yuritadigan ayrim jamiyat vakillari tomonidan beriladigan “Ko‘p tillilik nima uchun kerak? Bitta chet tilini o‘rganib olsa ham katta gap”, degan

HSR (LONDON),
HOUGHTON STREET REVIEW JOURNAL
ISSN: 2058-5519|Impact factor-15.9
http://houghtonstreetreview.com/index.php/hsr

savolga javob berib o‘tish va ikkinchi chet tilini o‘qitish bo‘yicha amaliy taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqot ob'ekti – bilim maskanlarida ikkinchi chet tilini o‘qitish ta'lim tizimi va o‘quv materiallari bo‘lib, maqola so‘ngida muallif tomonidan tajriba-sinov sifatida o‘tkazilgan metod tanishtiriladi va u ikkinchi chet tilini o‘qitish bo‘yicha innovativ metodlardan biri sifatida taklif etiladi.

Tadqiqot metodi sifatida nofilologik yo‘nalishdagi bilim yurtlarida ikkinchi chet tilini o‘rgatish va o‘rganish jarayonini kuzatish, shular bo‘yicha statistik ma'lumotlarni taxlil qilish metodlaridan foydalanildi.

Asosiy qism

Ma'lumki, O‘zbekistonning barcha etakchi maktab, litsey va oliygoxlarida barcha o‘quvchilarga ikkinchi chet tilini o‘qitish majburiyati qo‘yildi, shular qatorida nofilologik ta'lim yo‘nalishida faoliyat yuritayotgan bilim yurtlarida ham. Avvalombor, ikkinchi chet tilini nofilologik yo‘nalishda bo‘lgan bilim yurtlarida joriy etilishining o‘ziga hos hususiyatlari, muhim jihatlariga e'tiboringizni qaratmoqchiman. Mutahassisligi tilshunoslikka asoslanmagan bilim yurtlarida tahsil olayotgan o‘quvchilarga ikkinchi chet tilini o‘qitish filologik yo‘nalishda tahsil olayotgan o‘quvchilarga qaraganda murakkab jarayondir. Chunki, shu kabi bilim yurtlarida birinchi chet tilning o‘qitilishi, qolaversa, mutaxassisligi doirasida bo‘lgan maxsus fanlarning mavjudligi ayrim fikrlash doirasi chegaralangan, til o‘rganish qobiliyati zaif bo‘lgan o‘quvchilarga chet tillarini o‘rganishlarida ma'lum darajada to‘sqinlik qiladi va shu bilan birga, ularning fanlarni o‘zlashtirish davomatlariga ham salbiy ta'sir ko‘rsatadi. Shunday ekan, bu sharoitda nima qilmoq kerak?

Ta'kidlangan sharoitda ijod qiladigan til o‘qituvchisidan ko‘p izlanuvchanlik, kreativlik va mohirlik talab etiladi. Bir vaqtning o‘zida ikkita chet tilini o‘rganish ayrim o‘quvchilarga salbiy yoki ijobiy ta'sir ko‘rsatishi mumkin. O‘quvchilarning til tajribasi chet til o‘rganishda g‘ov bo‘lishi (salbiy ta'sir - interferentsiya) yoki yordam berishi (ijobiy ta'sir –transpozitsiya) kuzatiladi.

Binobarin, ikkinchi chet tili muallimi ayrim sharoitlarda o‘quvchilarning ona tilisini (bu erda russiyzabon o‘quvchilar nazarda tutilgan), ular o‘rganayotgan birinchi chet tilni hech bo‘lmaganda amaliy va nazariy bilmog‘i darkor. Shuningdek, o‘qituvchining o‘qitish metodikasidan atroflicha xabardor bo‘lishi talab qilinadi. O‘qitish ilmini metodika fani yoritadi, “methodike” so‘zi yunoncha bo‘lib “biror ishni maqsadga muvofiq bajarish usullari majmui” ma'nosini bildiradi. Demak, bilim yurtlarida faoliyat yuritayotgan uch xil til – ingliz, nemis va rus tili muallimlari o‘quv, o‘quv-uslubiy ishlarni hamkorlikda amalga oshirishlari talab etiladi. Agarda rus tili fani shu bilim yurtida dars rejasiga kiritilmagan bo‘lsa, aksi holda, til muallimlarining hamkorlikda ishlash strategiyasi to‘la-to‘kis amalga oshmaydi.

Ingliz tili bilan bir qatorda nemis tilini o‘rganishning yosh o‘zbek yigit-qizlari uchun naqadar ahamiyatga ega ekanligi haqida ma'lumot beramiz. Aynan bu hamohanglikning sababi, bu tillar nafaqat dunyoda siyosiy, iqtisodiy va madaniy sohalarda o‘z obro‘'-e'tiboriga ega bo‘lgan davlatlarning tillari bo‘lgani uchun emas, balki tillarning avvalombor lingvistik jihatdan o‘zaro bir-biriga qarindoshligi yoki yaqinligidir. Masalan, ikkala tilda ham gapda kesimning ikkinchi o‘rinda turishini kuzatish mumkin: “*I am going to theatre/Ich **gehe** ins Theater*”; modal fe'llar va infinitivning qo‘llanishi: “*He can **read**/Er kann **lesen***; murakkab gaplarda ham gap bo‘laklari ketma-ketligida umumiylikning mavjudligi: “he says that they are going*/Er sagt, dass sie kommen*”. Bu tillarda ko‘plab, ayniqsa grek va lotin tillaridan kirgan so‘zlar mavjud bo‘lib, ularning ma'nolari ko‘p tillarda

HSR (LONDON),
HOUGHTON STREET REVIEW JOURNAL
ISSN: 2058-5519|Impact factor-15.9
http://houghtonstreetreview.com/index.php/hsr

ham tushunarlidir, masalan “taxi/Taxi”, “polis/Polizei”, “creative/ kreativ”, “musik/ Musik”. Qolaversa, madaniy sohada mazkur tillarda so‘zlashuvchi xalqlarning ko‘p o‘hshash holatlarni kuzatish mumkin.

Bu tillarni birgalikda o‘rganish, qanday ketma-ketlikda bo‘lishdan qat'iy nazar, o‘quvchilar uchun katta afzalliklar keltiradi. Dastlab ingliz va nemis tillari muallimlari o‘zaro o‘quv dastur va rejalarini muvofiqlashtirib olishlari talab etiladi. Xususan, imkon qadar, leksik va grammatik materiallarning o‘qitish tartibini umumlashtirish lozim, masalan, “mening oilam”, “mening bo‘lajak kasbim”, “olmoshlar tushunchasi”, “fe'llarning tuslanishi” “fe'l zamonlari” va x.k. Shuningdek, chet tili muallimlarining shaxsan o‘zlari ingliz-nemis tillarini kamida grammatika nuqtai nazaridan bilishlari va o‘qituvchi kezi kelganda, o‘z fanini ona tili bilan bir qatorda boshqa chet tili fanlari bilan ham qiyosiy bog‘lab o‘tishlari tavsiya qilinadi. Agarda shu printsipga amal qilingan holda darslar tashkil qilinsa, o‘quvchiga ham ikkinchi va undan ortiq tillarni o‘zlashtirishda qulaylik tug‘diradi.

Ikki yoki undan ortiq chet tillarini o‘rganishda asosan lug‘at daftar tutish, ko‘rgazmali vositalar o‘ta muhim hisoblanadi. Har xil turda tashkillashtiriladigan badiiy kechalar va tadbirlar leksik mashqlar ustida ishlashga juda mos tushadi. O‘quvchilar bunda quyidagi vazifalarni bajarishlari mumkin:

- ingliz/nemis/rus (yana o‘zbek) tillarida ko‘ptillik lug‘at tuzish;
- shu tillarda transport vositalari, oziq ovqatlar, hayvonot olami, tana a'zolari yoki kiyim-kechaklarni turli tillarda nomlab chiqish;
- maxsus fanlar bo‘yicha o‘rganilayotgan tillardan glossari joriy etishlari;
- ko‘p tilni o‘rganishga qaratilgan viktorinalar o‘tkazish;
- chet tillaridan fan olimpiadalarida ishtirok etish;

Bundan tashqari o‘quvchilarga ularning tillarni puxta egallashlarida o‘qituvchi tomonidan “motivatsiya” berib borilishi juda muhimdir. Motivatsiya deganda o‘quvchilarni chet tillarini o‘rganishga bo‘lgan qiziqishlarini oshirish, ularni tarbiyalash jarayonida amaliy tadbirlarni amalga oshirish nazarda tutiladi. Mazkur tadbirlar doirasida chet tili muallimlariga quyidagilarni bajarish tavsiya etiladi:

- chet tili darslarida tili o‘rganilayotgan mamalakatlarning diqqatga sazovor joylari, madaniy xayoti, urf-odatlari va bayramlari haqida videoroliklar tashkillashtirish;
- dars davomida va darsdan tashqari vaqtlarda o‘quvchilar bilan faqat chet tilida so‘zlashish;
- o‘quvchilarning bo‘lajak kasblariga oid mavzularda chet tilida davra suhbatlari o‘tkazish;
- til egalari ishtirokida respublika va xalqaro miqyosida o‘tkaziladigan anjuman, tadbirlarda o‘quvchilarning ishtiroklarini ta'minlash.

Xulosalar

Ta'kidlab o‘tilgan masalalardan shuni xulosa qilish mumkinki:

- tilshunoslikka asoslanmagan bilim maskanlarida tillarni

HSR (LONDON),
HOUGHTON STREET REVIEW JOURNAL
ISSN: 2058-5519|Impact factor-15.9
http://houghtonstreetreview.com/index.php/hsr

o‘qitishda alohida yondashuv kerak bo‘ladi;

- chet tili muallimlarining ish stollarini bir-birlaridan

uzoqlashtirib bo‘lmaydi. O‘qituvchilarning hamkorlikda amalga oshiriladigan o‘quv- o‘quv-uslubiy, ilmiy-metodik va tarbiyaviy ishlari davomida ularni integrallashtirishga yo‘naltirish lozim;

- mazkur bilim yurtlarida maxsus fanlar bilan chet tili (rus tili)

fanlarining o‘zaro hamkorligini ta'minlash maqsadga muvofiq bo‘ladi;

- o‘quvchilarning tilga bo‘lgan qiziqishlarini oshirish maqsadlarida

chet tillarida badiiy kechalar, maxsus fanlar o‘rganadigan mavzular asosida va shu fan muallimlari ishtirokida chet tilida davra suhbatlari, ilmiy-amaliy anjumanlar o‘tkazib borish kerak;

- o‘qishda ijobiy yutuqlarga erishayotgan o‘quvchilar bilan alohida

ishlash amaliyotini davom ettirish muhim. Ularning respublika fan olimpiadalarida ishtiroklarini ta'minlash va ular erishgan yutuqlari uchun rag‘batlantirib borish chet tili muallimlarining odatiy faoliyatiga aylanishi darkor;

- o‘zlashtirishi qiyin kechayotgan o‘quvchilar bilan chet tili fanlaridan

sinfdan tashqari qo‘shimcha mashg‘ulotlar, ilmiy to‘garaklar tashkillashtirish zamon talabidir.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. Jamol Jalolov. Chet til o‘qitish metodikasi. “O‘qituvchi”, 2012.
2. Zimnyaya I.A. Psixologiya obucheniya inostrannym yazykam v shkole. – M.: Prosveshcheniye, 1991.
3. Vasilenko S.S. Metodika formirovaniya kontseptnoy kompetensii u studentov-lingvistov: nemetskiy yazyk kak vtoroy inostrannyy posle angliyskogo. – SPb., 2014.
4. Toshboyeva B.O. “Kichik maktab yoshidagi o‘quvchilarga chet tilini o‘rgatishda kelib chiqadigan qiyinchiliklar”. Zamonaviy ta’lim. № 6,
5. https:// yuz. uz. news. president. Mirziyoyev Sh.M. Xorijiy tillarni o‘rgatish bo‘yicha kelajak uchun mustahkam poydevor bo‘ladigan yangi tizim. Videoselektor. 2021.
6. 6. www.goethe.de. Goethe Institut. Warum Mehrsprachigkeit?
7. 7. https:/ www.mosalingua.com. Zitate über Fremdsprachenlernen.